

**OILADA QAYNONA-KELIN NIZOLARINING IJTIMOIIY  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15015387>

*Ilmiy rahbar:*

**Ummatova Sitora Shavkatulloyevna**

*Sharof Rashidov nomidagi*

*Samarqand davlat universiteti*

*“Amaliy psixologiya” kafedrasi dosenti,*

*psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

[sitoraummatova5@gmail.com](mailto:sitoraummatova5@gmail.com)

**Axatova Dilbar Botirovna**

*Sharof Rashidov nomidagi*

*Samarqand davlat universiteti*

*Psixologiya ta‘lim yo‘nalishi talabasi*

[axatovadilbar@samdu.uz](mailto:axatovadilbar@samdu.uz)

**Annotasiya**

Maqolada psixologiya fanida qaynona-kelin o‘rtasidagi salbiy munosabatlar ilmiy tahlil bo‘yicha turlari va psixologik mohiyati yoritib berilgan. Qaynona-kelin munosabatlarining asosi sifatida kognitiv xulq-atvor, affektiv jihatlar, nizolarning psixologik xususiyatlaridan emosiya, ishonchsizlik, psixologik holatlari qaynona-kelin munosabtlarida nizoga olib keluvchi sabablarini aniqlash, ularni bartaraf etish, alohida ahamiyatga molik masala ekanligi ko‘rinib turipti. Bunday kelishmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi sabablari rashk, sabrsizlik, badjahillik, qisqa muddatli, uzoq muddatli, faol, passiv nizolar.

**Tayanch tushunchalar**

Psixologiya, rashk, emosiya, baxillik, psixologik holat, ijtimoiy munosabatlar, nizolarning psixologik xususiyatlari, ishonchsizlik, do‘q-po‘pisa, oilaviy muhit, iqtisodiy, moddiy, xulq-atvor, kognitiv, affektiv.

**Аннотация**

В статье на основе научного анализа в области психологии рассмотрены типы и психологическая сущность негативных отношений свекровь-невестка. Очевидно, что в основе отношений свекровь-невестка лежат когнитивное поведение, аффективные аспекты и психологические характеристики конфликтов, такие как эмоции и психологические состояния недоверия. Особое значение имеет выявление и устранение причин конфликтов в

отношениях свекровь-невестка. Причинами таких разногласий являются ревность, нетерпение, невежество, краткосрочные, долгосрочные, активные и пассивные конфликты.

### **Ключевые слова**

Психология, ревность, эмоция, скупость, психологическое состояние, социальные отношения, психологические характеристики конфликтов, недоверие, запугивание, семейная обстановка, экономический, материальный, поведенческий, когнитивный, аффективный.

### **Annotation**

The article examines the types and psychological nature of negative mother-in-law-daughter-in-law relationships based on scientific analysis in the field of psychology. It is obvious that mother-in-law-daughter-in-law relationships are based on cognitive behavior, affective aspects and psychological characteristics of conflicts, such as emotions and psychological states of mistrust. Of particular importance is the identification and elimination of the causes of conflicts in mother-in-law-daughter-in-law relationships. The causes of such disagreements are jealousy, impatience, ignorance, short-term, long-term, active and passive conflicts.

### **Keywords**

Psychology, jealousy, emotion, stinginess, psychological state, social relations, psychological characteristics of conflicts, mistrust, intimidation, family environment, economic, material, behavioral, cognitive, affective.

**Psixologiyada nizolar nima.** Nizo (konflikt) -bu ikki yoki undan ortiq taraflar o'rtasidagi manfaatlar, maqsadlar, qarashlar yoki ehtiyojlar to'qnashuvi natijasida yuzaga keladigan murakkab ruhiy va ijtimoiy holatdir.

Psixologiyada nizo-bu taraflar mavjudligi kamida ikki kishi yoki guruh ishtirok etadi, qarashlar yoki manfaatlar qarama-qarshiligi har bir taraf o'z nuqtai nazarini himoya qiladi, emosional ta'sir, nizo keskinlik, stress yoki tushkunlikni keltirib chiqarishi mumkin, faol harakatlar, taraflar o'z manfaatlarini himoya qilish uchun harakat qiladi.

### **Nizolarning turlari:**

1. **Shaxsiy (intrapsixik) nizo** – insonning o'zi bilan o'zi kelisha olmasligi, ichki ziddiyatlar.
2. **Shaxslararo nizo** – ikki yoki bir nechta shaxs o'rtasida kelib chiqadigan tushunmovchiliklar.
3. **Guruhlararo nizo** – turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlar (masalan, jamoa va rahbar o'rtasida).

4. **Ijtimoiy nizo** – katta ijtimoiy qatlamlar, sinflar yoki millatlar o'rtasidagi ziddiyatlar.

**Nizolarning sabablari:**

- Manfaatlar qarama-qarshiligi
- Axborot yetishmovchiligi yoki noto'g'ri tushunish
- Turli qadriyatlar va dunyoqarashlar
- Emosional yoki psixologik muammolar
- Adolatsizlik va resurslar taqsimoti

**Nizolarni hal qilish usullari:**

- **Kompromiss** – tomonlar o'zaro yon bosishadi.
- **Kelishuv** – hamkorlik orqali umumiy yechim topish.
- **Majburiy yo'l** – kuch ishlatish yoki avtoritet orqali nizoni hal qilish.
- **Yolg'ichlanish (ignor qilish)** – nizodan qochish yoki uni chetlab o'tish.
- **Yordam so'rash** – neytral tomon yoki psixolog ko'magi.
- **Majburiy hal qilish**-sud yoki huquqiy choralar orqali nizoni bartaraf etish.

Psixologlar qaynona-kelin nizolarini shaxslararo munosabatlar muammosi sifatida qarashadi. Qaynona-kelin nizolari nafaqat sharqiy jamiyatda, balki butun dunyoda, barcha xalqlar va millatlarda uchraydigan ijtimoiy va psixologik muammolardan biri hisoblanadi.

**Chet el olimlarining qaynona-kelin nizolari mavzusidagi tadqiqotlari quyidagicha:**

Z.Freydning psixoanalitik nazariyasiga ko'ra qaynona-kelin munosabatlarida ko'pincha ong ostidagi raqobat mavjud bo'ladi. Qaynona o'z o'g'li ustidan nazoratni saqlab qolishga harakat qiladi, kelin esa o'zining oilaviy hayotini mustaqil boshqarishni xohlaydi.

Tereza Di Tonno o'z tadqiqotlarini "qaynona sindromi" deb nomlaydi. Uning ta'kidlashicha, ko'p qaynonalar kelinni o'z o'g'lini olib qo'ygan raqobatchi sifatida qabul qiladi.

Megan Gilligan qaynona-kelin nizolari mavzusida AQShda 10 yillik tajriba o'tkazib, shuni aniqlashdi.

\*Kelin-qaynona o'rtasidagi munosabatlar er-xotinning munosabatlariga xam ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

\*Agar qaynona-kelin nizolari kuchaysa, er-xotinning ajrashish ehtimoli ortadi.

\*Erkak kishi onasi va rafiqasi o'rtasida "ko'prik" rolini o'ynashi muhimdir.

G'arbda (Yevropa va AQShda) qaynona-kelin ko'pincha alohida yashaydi shuning uchun ularning nizolari kamroq uchraydi.

Osiyo va Sharq mamlakatlarida qaynona-kelin ko'pincha birga yashaydi va bu munosabatlar qiyinroq bo'ladi.

### **Psixologiyada kaynona-kelin nizolari ko'rinishlari.**

1. Ayrim qaynonalar kelini haqida bo'lar -bo'lmas gaplarni o'g'illariga aytib janjal chiqaradilar. Ayrim kelinlar yangi oilaga moslashishi qiyin bo'ladi, Oqibatda qaynona-kelin nizolari kelib chiqadi. Bordiyu kelin boshqa millatga mansub bo'lsa, uning yangi oilaga moslashishi yanada qiyin bo'ladi. Kelin uchun bu oila "begonadek" tuyuladi.

2. Psixologiyada kaynona-kelin nizolari bu- rashk adaptasiyaning qiyinlashuvi, murakkab salbiy his-tuyg'ular, iqtisodiy, moddiy omil, qizg'anish (kamchilik va qusur yaxtarish) aralashmasi deb ataladi.

#### **Salbiy munosabatlarni keltirib chiqaruvchi sabablar.**

1. Ba'zi kelinlar va onalik vazifalarini bajarishga tayyor bo'lmaydilar. Shunday kelinlar borki, ular na ovqat pishirishni, na uy-joylarni toza saranjom tutishni va na kattalar bilan muomala qilishni biladilar.

Kelin kelinligining birinchi kunidanoq hamma narsani kerakligicha bilishi va katta tajribaga ega bo'lgan qaynona darajasida turishi qiyin albatta, lekin bilishni va u oilani tutimini o'rganishni istamaganlari ham uchraydi. Shuning uchun nikohgacha onalar qizlariga osh-ovqat pishirishni, har xil shirinligu pishiriqlarni tayyorlashni, did bilan mehmon kutishni, uy-joylarni, oshxonani saranjom sarishta tutishni, tejamkorlikni, oila byudjetini iqtisod qilishni va shu kabi uy-ro'zg'or ishlarini o'rgatishga alohida e'tibor berishlari zarur.

2. Psixologlarning fikricha, eng muhim masalalardan biri shundaki, onalar qizlariga shunday ta'lim-tarbiya va nasihatni bermoqlari muhimdir.

Jonim qizim! Eni sen o'z tug'ilib-o'sgan uyingdan chiqib, er-yigitga umr-yo'ldosh bo'layapsan, sen eringga yer bo'lginki, u senga osmon bo'lsin.

Sen unga joriya bo'lki, u senga qul bo'lsin.

Bir narsani hadeb qistab so'rayverma.

Undan ko'p uzoq qolmaginki, u seni unutmasin.

Uning burni, qulog'i va ko'zini yomon hid, ovoz va manzaralardan asra. Eringni burni sendan faqat muattar iforlarni tuysin. Qulog'i faqat yoqimli so'zlarni eshitsin. Ko'zi senga tushganda faqat go'zalliklar ko'rsin deya tarbiya va nasihat berishlari muhimdir.

Ayrim yosh er-xotinlar o'rtasida shunday masalalar bo'yicha ham nizolar chiqib turadi. Shuning uchun onalar qizlarini hamma tomondan turmushga puxta tayyorlashlari muhimdir.

3. Ayrim hollarda qaynona-kelin bolalar tarbiyasida kelisha olmaydilar. Bolalar yo bobo-buvi yo ota-onalar tomonidan qattiq erkalatib yuboriladi. Natijada, ota-ona va bobo-buvilar o'rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Aslida ikki tomon ham bolalarning vatanga, jamiyatga xizmat qiladigan yetuk inson bo'lib

yetishini istashadi. Maqsad bir, faqat tanlangan yo'llar turlicha, biroq ular bir bitimga kelib olishmasa bola tarbiyasining holiga voydir. Buning uchun ular bolalardan holi joyda yakdil qarorga kelishlari muhimdir. Bunda bola qanday muhitda va qanday sharoitda, davrda o'sayotganini, mijozni turini, temperamentini hisobga olishlari zarur.

4. Ba'zi katta xonadonlarda ovsinlar qaynona iltifotini qozonish yo'lida bir-birlaridan rashk qilishlari asosida kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Oilada ikki va undan ortiq kelin bo'lsa, qaynona ularning hammasiga bir xilda qaray olmasligi tabiiy holdir. Kelinlardan birortasi qaynonaning didiga yaqinroq, ba'zisi esa uzoqroq bo'ladi. Natijada "o'gay" kelin bilan qaynona o'rtasida kelishmovchilik boshlanadi. Bunday holning oldini olish va ovsinlar o'rtasiga sovuqchilik tushirmaslik uchun qaynona o'z kelinlariga mumkin qadar bir xilda munosabatda bo'lishi. Rashk qilishlariga imkon yaratib qo'yishdan ehtiyot bo'lishlari kerak. Bu o'rinda shaxsan kelinlardan ham aql-idrok mulohazalik va sabr-toqat talab etiladi.

5. Ba'zi hollarda qaynopa va qaynsingillar ham oilada qaynona-kelin o'rtasidagi nizolarga sabab bo'ladilar. Ular kelinning har bir qilgan ishidan, gapirgan gapidan, hatti-harakatlaridan ayb topib kelinni kamsitishadi yoki onalariga yomonlab o'rtalariga sovuqchilik tushirishadi. Ba'zi hollarda qaynona yoki qaynsingillar ham kelinga qizg'anib er-xotinlar o'rtasidagi munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadilar.

6. Ba'zi hollarda qaynona- kelinning yosh xususiyatlarini, qiziqishlarini, orzu-havaslarini, ishlashi yoki o'qishlarini hisobga olmaydilar. Qaynonalar orasida umr bo'yi uy bekasi bo'lganlari ham bor. Ular ishlash bilan uy-ro'zg'or ishlarini birga olib borishni o'z boshlaridan o'tkazmaganlar. Bunday holda kelinlar ularning g'azabiga uchraydilar. Kelin haqida bo'lar-bo'lmas gaplarni bahona qilib nizolar, janjallar chiqaradilar. Bunday qaynonalar o'g'illari, nabiralari baxtidan ko'ra o'z huzur-halovatini ko'proq o'ylaydilar. Buning oldini olish uchun o'g'illaridan g'oyat tadbirkorlik talab qilinadi.

7. Ayrim, kelinlarga yangi oilaga moslashishi qiyin bo'ladi, oqibatda qaynona-kelin orasida kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Ba'zida kelinning onasi uning yangi oilasiga aralashib, qizidan uning uyida qanday gaplar bo'layotganini so'rab olib, unga gap o'rgatib, masalan: "sen ularga xizmatkormisan, og'zingni bo'sh berma, eringni va qaynonangni oldida o'zingni baland tutgin, deya qizlariga salbiy maslahatlar beradigan onalar ham uchrab turadi. Har bir oilaning o'ziga xos muhiti, qonun qoidalari, an'analari, atrofda yuz berayotgan voqeya-hodisalarga beradigan baho mezonlari bo'ladi.

**Kelinning yangi oilaga moslashishi uning mijozni ya'ni temperament tipiga ham bog'liqdir.**

\*Xolerik temperamentiga mansub bo'lsa, tez moslashadilar.

\*Sangvinik temperamentiga mansub bo'lsa, ular yangi sharoitga oson moslashadigan hamda uni osongina o'zlashtirishga tayor bo'ladilar.

\*Flegmatik temperamentiga mansub bo'lsa, vazmin, og'ir karvon bo'lgani uchun oilaga sekin moslashadilar.

\*Melanxolik temperamentiga mansub bo'lsa, sal narsadan ularning ruhi tushib, bo'lar-bo'lmasga darrov xafa bo'lib yig'laydilar. Ular yangi oilaga sekin-astalik bilan o'rganib moslashadilar.

Psixologlarning fikricha, ba'zi qaynonalar o'g'lini kelinidan qizg'anadi va oqibatda nizolar kelib chiqadi. Bunday nizolar odatda kamfarzand yoki yolg'iz otasiz oilada o'sgan taqdirda ko'proq uchraydi.

**Psixologlarning qaynona-kelin nizolarini bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalari.**

Kelin yangi oilaga tezroq moslashishi uchun qaynonaning ijobiy muomalasi ham katta rol o'ynaydi. Qaynonalar ham kelinlardan hadeb kamchilik va qusur axtarmasdan uni o'z farzandiday ko'rib, o'z bilganlarini sabr toqat bilan o'rgatib, yaxshisini oshirib, yomonini yashirishi, kamchiliklarini yuziga solavermasdan yaxshi tomonlarini gapirib, maqtab turishlari muhimdir. "Yaxshi so'z ham yomon so'z ham bir og'izdan chiqadi". Qaynonalar kelinlarida hosil qilingan ko'nikma va malakalarining o'z o'g'li uchun kelajakda o'z nabiralari uchun xizmat qilishini esda tutishlari kerak.

\*Har bir taraf o'z pozitsiyasini tushunishi va empatiya ko'rsatishi lozim.

\*Chegaralarni belgilash va ularga rioya qilish.

\*Ochiq va muloyim muloqot qilish.

\*Mehr, hurmat va sabr- toqatlilik muhimdir.

Psixologlar ota-ona tarbiyasi, tushunish va murosa orqali bu muommalarni yengish mumkinligini ta'kidlaydilar. Agar har ikki tomon bir-birini tushunishga harakat qilsalar, oilada tinchlik-totuvlik va ahillik hukum suradi. Birgalikda yaxshi vaqt o'tkazish, umumiy manfaatli faoliyatlar bilan shug'ullanish munosabatlarni yaxshilashi mumkin.

### **ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Shoumarov G'.B., Haydarov I.O., Sog'inov N.A., Akramova F.A., G.Solihova, G. Niyozmetova. Oila psixologiyasi: o'quv qo'llanmasi. "ShARQ" Nashriyot-matbaa aksiyadolik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2010. 178-183b.

2. Bozorova S., Ro'zmanova R. Toshkent: "Kitobdornashr"-2019. 66b.,

3. Doktor Oiz Qarniy. Dunyodagi eng baxtli ayol “Book Media Shop” MChJ qoshidagi “Munir” nashriyoti, TOShKENT-2022. 279-280b.
4. Ziyovuddin Rahim. Dildagi gaplar. Toshkent “Nurafshon business” -2020. 45b.
5. Ummatova S.Sh. Oila psixologiyasi: O’quv qo’llanma. Samarqand: SamDU nashriyoti-2024.128-137 b.
6. Ummatova S.Sh. Rashk fenomenining oila munosabatlaridagi gender va yosh farqlari masalalari. / Monografiya. - SamDU nashriyoti, 2023. -53 b.
7. Qodirov O.S. Umumiy psixologiya // O’quv qo’llanma. - Samarqand, 2022.- 250 b.
8. Qodirov O.S., Xotamov Sh.N., Ijtimoiy psixologiya // Darslik. - Samarqand, 2023. -360 b.
9. Shoumarov G’.B. tahriri ostida. Oila psixologiyasi. T: Sharq. 2008.
10. [“Ziyo.uz” internet sayti.](http://Ziyo.uz)